



Khudoyberdiyev Otabek Khudoyberdiyevich, Head of the multimedia department of the Information and Analytical Media Center of “Uzbekistan Airports” JSC

Email: otabel.xudoyberdiyev.1991@gmail.com

Abstract: Decree of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev dated February 21, 2024 “On the State Program for the Implementation of the Uzbekistan-2030 Strategy in the Year of Support for Youth and Business” #DP-37 According to the resolution, get acquainted with the opportunities provided to young people.

Key words: youth, “green economy”, “Youth Balance”, “Olympiad of Five Initiatives”, “Zakovat”, “Youth Notebook”, “Young Entrepreneur”, “Ustoz”, “Girls Academy”.

Kirish. Mamlakatimizda yoshlarga bo'lgan e'tibor, o'sib kelayotgan barkamol avlodga bo'lgan g'amxo'rlik davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani bilan ham juda ahamiyatlidir. Yoshlar uchun qaratilgan e'tibor, ularni qo'llab-quvvatlash darajasi kun sayin ortib borayotgani o'g'il-qizlar uchun ko'plab imkoniyatlar eshigini ochib bermoqda. Zero yoshlar vatan kelajagi, ertangi kunning bunyodkorlari ekanligi hech kimga sir emas. Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil 1-yanvar holatiga respublika bo'yicha yoshlar (14-30 yosh) soni 9 654 351 kishi tashkil etib, jami aholining 26,8 foiziga teng².

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi “O'zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risidagi PF-37-son farmoniga ko'ra, “O'zbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan keng ko'lamlı islohotlarni 2024-yilda samarali amalga oshirish, xalqimizning kundalik hayotida ijobiy o'zgarishlarga erishish bo'yicha tizimli harakatlarni izchil davom ettirish, “yashil iqtisodiyot” tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash hamda xalq manfaatlariga yo'naltirilgan boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish maqsad qilingan¹.

Bu farmonga asosan, iste'dodli va iqtidorli yoshlar Mahallalarda yoshlar bilan ishlash masalalarini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika komissiyasi qarori bilan “Yoshlar balansi” asosida vazirlik va idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, davlat ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar hamda oliy ta'lim tashkilotlari rahbarlariga biriktiriladi va biriktirilgan rahbarlar har oyda kamida bir marotaba o'zlariga biriktirilgan yoshlar bilan uchrashib, ularning muammolarini hal qilish va salohiyatini yuzaga chiqarish, ularni talab yuqori bo'lgan kasb-hunarga o'qitish orqali bandligini ta'minlash, hayotda o'z o'rnini topishi, shuningdek, huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishga har tomonlama ko'maklashib borishi belgilab o'tilgan.

Yana bir e'tiborli jihati shundaki, ushbu rahbarlarga o'zlari biriktirilgan yoshlar muammolarini hal qilish va salohiyatini yuzaga chiqarish uchun tegishli tashkilotning



budjetdan tashqari mablag'lari va qonunchilik bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan zarur mablag'larni Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartib asosida yo'naltirishga ruxsat berilgan.

Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishda iborat³. “Yoshlarning bo'sh vaqti – yetakchining ish vaqti” tamoyili asosida mahalladagi yoshlarni bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish va yoshlarni madaniyat, san'at, sport, kitobxonlik, axborot texnologiyalari, intellektuala o'yin yo'nalishlari bo'yicha iqtidorlarini kashf etish hamda qo'llab-quvvatlash maqsadida 2024-yilgi mavsum doirasida mahalla yoshlari uchun 26 ta loyiha besh bosqichda mahalla-sektor-tuman-hudud-respublika hamda maktab o'quvchilari o'rtasida 8 ta loyiha, professional ta'lim muassasalari o'quvchilari o'rtasida 5 ta loyiha, oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida 6 ta loyiha o'tkazildi.

Ananaviy tarzda tashkil etilayotgan “**Besh tashabbus olimpiadasi**”ning 2024 yilgi mavsumida ishtirok etish uchun bugungi kun holatiga jami 824 ming 314 nafar o'g'il qizlar 5tashbbus.uz saytidan ro'yxatdan o'tdilar. 2024-yil 1-martdan boshlab mahalla, ta'lim muassasalari, korxonalar va tashkilotlar tizimida mukofot jamg'armasi 600 million so'm miqdorida xorijiy tillar (“Ibrat farzandlari”) bo'yicha tanlovlar, kibersport musobaqalari va “**Zakovat**” intellektual o'yinlari yuqori saviyada tashkil etilib, ilk bor vazirlik, idora va tashkilotlarning quyi tizimidagi xodimlari o'rtasida “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida 6 ta loyiha o'tkazildi.

Yoshlarga yaratilgan yana bir imkoniyatlardan biri, Yoshlar ishlari agentligi va mahalliy hokimliklar tomonidan kasblar tanlovida g'olib bo'lgan yoshlarni o'z hududlarida jihozlangan ustaxonalar bilan “**Yoshlar daftari**” jamg'armasi mablag'lari hisobidan ta'minlash amaliyoti yo'lga qo'yilgani bo'ldi.

Yoshlar o'rtasida tadbirkorlikni keng ommalashtirish va biznes bilan shug'ullanishga qo'shimcha imkoniyatlarni yaratish maqsadida oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasida ajratilayotgan kreditlarning kamida 40 foizi yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishga yo'naltiriladi. 2024-yil 1-iyundan boshlab quyidagilarni nazarda tutuvchi “**Yosh tadbirkor**” tanlovlarini o'tkazish amaliyoti yo'lga qo'yiladi:

Yoshlar ishlari agentligi tomonidan tanlov asosida “mahalla – tuman – viloyat – respublika” bosqichlarida yoshlarning istiqbolli biznes loyiha va g'oyalari saralanadi. Bunda, nogironligi bo'lgan yosh tadbirkorlarning loyiha va g'oyalari alohida e'tibor qaratiladi va respublika bosqichida saralashdan o'tgan har bir loyihaga bazaviy hisoblash miqdorining 1 000 baravarigacha miqdordagi imtiyozli kreditlar ajratiladi, shuningdek, g'olib bo'lgan biznes loyiha va g'oyalar egalari Yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi hisobidan xorijiy davlatlarga malaka oshirishga yuboriladi.

Joriy yilda yoshlarni zamonaviy kasblarga o'qitish bo'yicha “**Ustoz**” maxsus platformasi ishga tushirilsin va dastlabki bosqichda mazkur platforma orqali 250 ming nafar yoshlar qamrab olinishiga alohida e'tibor qaratiladi. Bundan tashqari, yosh xotin-qizlarni tadbirkorlik, marketing, grafik-dizayn kabi zamonaviy kasblarga o'rgatish uchun “**Qizlar akademiyasi**” platformasi ishga tushirilsin va bu orqali yosh xotin-



qizlar uchun turli tanlov, loyihalar, o'quv oromgohlari, stajirovkalar tashkil etilish ham ustuvor vazifalardan biri qilib belgilangan.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi doirasida 7,5 ming nafar yoshlar zamonaviy kasblarga o‘qitilishi, xalqaro imtihon tizimlarida chet tillari bo‘yicha yuqori ball olgan 6 ming nafar yoshlarning imtihon xarajatlari qoplab berilishi ta‘minlanishi belgilab o‘tildi.

Asosiy qism. “Uzbekistan Airports” aksiyadorlik jamiyatida ham yoshlar va ularga bo‘lgan e‘tibor diqqat markazida, negaki, bugungi aviatsiya yo‘nalishida faoliyat yuritayotgan yoshlar ertangi kun umidi, soha istiqbolidir.

Ushbu farmonning ijrosini taminlash maqsadida “Uzbekistan Airports” aksiyadorlik jamiyati tomonidan tizimida 2024-yil ijtimoiy yo‘nalishda amalga oshiriladigan ish rejasi hamda Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish yuzasidan chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqildi.

Ushbu darsturda quyidagi chora-tadbirlarga alohida e‘tibor qaratildi:

1. Xalqaro aeroportlarda “Aeroport yoshlari bir maqsad uchun birlashaylik” shiori ostida tadbirlar o‘tkaziladi.

Ushbu tadbirlarni o‘tkazishdan asosiy maqsad jahon standarti talablariga mos keladigan, intellektual salohiyati yuqori, malakali mutaxassislarni yetishtirish va ularni mamlakat taraqqiyotiga safarbar etishdan iborat.

2. “Rahbar va yoshlar” davra suhbatlarini tashkil etish.

Uchrashuvlarda “Rahbar va yoshlar” o‘rtasida ochiq muloqotlar tashkil etilishi bilan birga, Yoshlar siyosati doirasida olib borilayotgan ustuvor ishlar natijadorligi hamda kelgusidagi vazifalar belgilab olinadi.

3. Yoshlar ishtirokida bahorgi spartakiadani o‘tkazish.

Yosh xodimlar o‘rtasida sport musobaqalarini tashkil etish orqali ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish va ommaviy sportga keng turda jalb etish orqali sog‘lom turmush tarzi targ‘ib etish bo‘yicha ko‘plab tadbirlar amalga oshirilmogda.

4. Bilimdonlar “Zakovat” turnirini o‘tkazish.

Iqtidorli yoshlarning mantiqiy bilimlarini oshirish, ularni saralash va intellektual o‘yinlarga keng jalb qilish, yoshlarning intellektual salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

5. Yosh erkak va ayollar o‘rtasida futbol va basketbol bo‘yicha “Rais kubogi” musobaqalarini o‘tkazish.

Iste‘dodli yoshlarning qobiliyatini ro‘yobga chiqarish, yosh avlodning jismoniy va ma‘naviy yetuk bo‘lib ulg‘ayishi, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish kabi vazifalaridan kelib chiqib mazkur tadbir ham yuqori saviyada o‘tkaziladi.

6. Yosh xodimlarni ma‘naviy yuksaltirish maqsadida teatr, kino, muzey va istirohat bog‘lariga tashriflarni tashkil etish.

Yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishni tashkil etish dolzarb masala hisoblanadi. Yoshlar qanchalik ma‘naviy barkamol bo‘lsa, turli yot illatlarga qarshi



immuniteti ham shunchalik kuchli bo'ladi. Shu sababdan ularning mazmunli xordiq olishlari uchun teatr, kino, muzey va istirohat bog'lariga tashriflarni tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

7. Kam ta'minlangan, ijtimoiy himoyaga muxtoj yosh oilalarga imtiyozli uy-joy olishda ko'maklashish.

Daromadi yuqori bo'lmagan yoshlarga ipoteka kreditlari asosida uy-joy sotib olishlari uchun boshlang'ich badal yoki kredit foiz to'lovlarining bir qismini qoplab berish maqsadida davlat byudjetidan qaytarib berilmaydigan mablag'lar ajratish.

8. Oliy ta'lim muassasalarining sirtqi bo'limlarida tahsil olayotgan yoshlarning to'lov kontraktlari uchun mablag' ajratish.

Bunda iqtidorli yoshlar tanlab olinib ularning ma'lum miqdordagi kontrakt pullari to'lash nazarda tutilgan.

9. "Uzbekistan Airports" AJ stipendiyasini tayinlash.

Toshkent davlat transport universiteti talabalarini rag'batlantirish, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Xulosa. Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo'lidan ma'lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo'lishi o'sha davlatda yoshlar ta'lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e'tibor darajasiga bog'liq. Shu ma'noda, O'zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Yuqoridagilardan shuni xulosa qilib aytish mumkinki, "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da yoshlarga berilgan imkoniyatlarning chek-chegarasi yo'q. O'z navbatida, "Uzbekistan Airports" aksiyadorlik jamiyatida ham yoshlar siyosatini har tomonlama rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarga amal qilinmoqda.

Muxtasar aytganda, so'nggi besh yil davomida yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularni komil inson sifatida yetishi uchun zamin yaratildi. Yoshlarga berilayotgan bu e'tibor, oxir-oqibat, o'z mevasini bermoqda. Bunga yoshlarimiz xalqaro va respublika miqyosida erishayotgan yutuqlari yaqqol dalildir. Mazkur islohotlarning samarasi o'laroq kelajagimiz bunday yoshlar qo'lida porloq bo'lishiga hech qanday shubha yo'q. Chunki aynan bugungi yoshlar ertangi kunimizning, Yangi O'zbekistonning, Uchinchi Renessansning poydevori hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2024-yil 21-fevralda "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi. <https://lex.uz/docs/-6811936>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqidan. 24.06.2019 yil. <https://president.uz/oz/lists/view/1063>



3. O'zbekiston respublikasi prezidenti huzuridagi Statistika agentligi
<https://www.xorazmstat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/11051-mamlakatimizda-yoshlar-soni-qancha>



BOLALARDA DISBAKTERIOZ KELIB CHIQISHI VA KLINIKASI.

Isaqova Shirina Sodiqjon qizi

Toshkent tibbiyot akademiyasi 2- son davolash fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ichak mikroflorasi tarkibidagi buzilishlar yosh bolalar uchun ayniqsa xavflidir. Chaqaloqdagi ovqat hazm qilish buzilishi ham disbiyoz, ham boshqa ko'plab patologiyalarning belgisi bo'lishi mumkin. Disbiyozni kelib chiqish omillari, xavf omillari, klinik namayon bo'lishi, uni aniqlash va diagnostika qo'yish.*

Kalit so'zlari: *disbakterioz, e.coli bakteriyalar, mikroorganizmlar, normal flora, diareya, kolika, qayt qilish, tana haroratining ko'tarilishi, ichaklar normal mikroflorasi, melabsorbsiya sindromi, dieta, zaharlanish.*

Ichaklar Bizning tanamizda juda ko'p miqdordagi mikroorganizmlar "yashashi" hech kimga sir emas, ularning 490 dan ortiq turlari mavjud. Ammo ularning hammasi ham qodir emas va turli kasalliklarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun patogen va shartli patogen mikrofloralar mavjud. Umuman olganda, har bir inson o'z "aholi", o'z mikroorganizmlariga ega, bu esa o'z navbatida tananing o'zini qo'llab-quvvatlaydi. Ya'ni, bu simbiozning bir turi: "sen - menga, men - senga". Ovqat hazm qilish tizimining turli qismlarida turli xil "o'troqchilar" mavjud. Masalan, og'izda (darvoqe, tanamizdagi eng "zich" joy) va yo'g'on ichakda anaeroblar (*Escherichia coli*, enterobakteriyalar, xamirturushga o'xshash zamburug'lar) ustunlik qiladi va oshqozon odatda "kambag'al", chunki ... Ko'pchilik xlorid kislotada omon qolmaydi. Ular nima uchun kerak? Biz iste'mol qiladigan ovqat juda sog'lom bo'lishi mumkin, ammo oshqozonga kiradigan shaklda tanamiz uni o'zlashtirmaydi. Bu shuni anglatadiki, uni qandaydir tarzda "qayta ishlash" va "topshirish" kerak. Buning uchun mikrofloraning butun tarkibi kerak. Va bu erda asosiy rolni majburiy mikroorganizmlar o'ynaydi. Majburiy mikroorganizmlar asosiy, doimiy mikroflora hisoblanadi. U chaqaloqning birinchi oziqlanishidan boshlab shakllana boshlaydi va 2 oygacha barqarorlashadi. Hayot davomida ichaklar asta-sekin opportunistik mikroflora tomonidan kolonizatsiya qilinadi. Uning zarurligi to'liq isbotlanmagan. Ba'zi shifokorlar, agar ular ichaklarda mavjud bo'lsa, ichak infeksiyalaridan umumiy kasallanish xavfi kamayadi va immunitet kuchayadi, deb hisoblashadi. Boshqalar esa, aksincha, bu ko'proq kasallanishni keltirib chiqaradi, deb hisoblashadi. Har holda, opportunistik mikroorganizmlar mavjud, har doim ham bor. Opportunistik mikrofloralar tanada uzoq vaqt davomida hech qanday zarar etkazmasdan qolishi mumkin bo'lgan kichik "ko'chmanchilar" dir. Ammo bir xil turdagi bakteriyalarning ko'pligi ichakka kirsa yoki immunitet keskin pasaysa, kasallik og'ir shaklda namoyon bo'ladi. Sog'lom organizmda bu mikrofloraning o'sishi majburiy mikroorganizmlar tomonidan ingibor qilinadi. Inson tanasida patogen flora doimiy ravishda mavjud emas. Va tashqaridan kelib, u oddiy mikroflorani yo'q qilish yoki juda tez davom etish (ko'payish va kolonizatsiya)